

**Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati**



**2025 yil “Atrof-muhitni asrash va
“yashil” iqtisodiyot yili” .
Kitobxonlarga bibliografik tavsiyanoma.**

Muqaddima

«Agar odamlar tabiatga nisbatan loqayd munosabatda bo'lsalar, uning qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzсалar, bir kun kelib tabiat ulardan o'ch oladi, o'shanda hech qanday kuch uni to'xtata olmaydi»,

Abu Rayhon Beruniy

Tabiat-odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Tabiatda—bu dunyo, odam, koinot; mikromakromega dunyolar; jonsiz va jonli narsalar bor. Tor ma'noda—tabiat fanlari o'rganadigan obyekt. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (mas., dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa esa tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. Odam




tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda „ikkinchi tabiat“ deyiladi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025 yilni O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilishni taklif qildi. Bu haqda u bugun, 20 noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so‘z ochdi. Yig‘ilganlar ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatladi. Hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqishi belgilandi. Ushbu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi ta’kidlandi. Prezident so‘zining davomida bugun nafaqat O‘zbekiston, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotganini qayd etdi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Bunga javoban O‘zbekistonda uch yil avval “Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlangan. Qo‘shni mamlakatlar bilan

birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishilgan. Poytaxt Toshkentda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo'ldi. Ayni vaqtda "yashil" energetika iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylanmoqda.






Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi. Iqtisodiyot yashil bo‘lishi uchun nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi ham kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi

@natlib.uz

#Yashil_makon



«Yashil makon» platformasi — hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, mavjud daraxtlar soni, turi va joylashuvi, shaharlarning ko‘kalamzorlashtirilganlik darajasi, daraxtlarni kesish, shu jumladan, sanitariya maqsadida kesish uchun berilgan ruxsatnomalar, aniqlangan qonun buzilishi holatlari va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron ma’lumotlar bazasi.

@natlib.uz

#Yashil_makon

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni va 2025-yil mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb nomlanishi, aziz foydalanuvchilarni tabiatni asrash mas'uliyatini doim his etishimiz kerakligini eslatuvchi ma'lumotlar bilan @natlib.uz orqali tanishib borishingiz mumkin.



Odamning tabiatga munosabati tarixda o'zgarib va rivojlanib bordi. Antik falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg'onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida karaldi. Yangi davrda tabiatga bo'lgan munosabat tabiatning ilmiy o'rganish ob'yektiga aylanishida katta rol o'ynadi.

Tabiat ob'yekti fazo va vaqtda mavjud modda, materiyadir. Ular cheksiz ma'lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqtlar (fanning so'nggi ma'lumotlari bo'yicha bundan 20 milliard yil avval) bu jismlar boshqa ko'rinishda bo'lgan. Bo'lajak milliard yillarda u yana o'zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti tabiatning, biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq. Bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa, odamning normal

yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo bo'ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish — biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim (qarang Tabiatni muhofaza qilish). Insonning tabiatga bunday munosabatda bo'lishida fan asosiy omil bo'lib kelmoqda. Yer va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (mas., metagalaktikalari)da, yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tabiat– g'oyat xilma-xil shakllari, tarkibiy qismlari bilan insoniyatni qurshab turgan organik va anorganik olam, o'simlik va hayvonot dunyosi. Insoniyat uning bir qismi bo'lgani bois, uning mohiyati bir tomondan, tabiiy (biologik), ikkinchi tomondan, ijtimoiydir. Tabiat tushunchasi ko'proq keng va qisman tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tabiat butun obyektiv borliq, real voqelik, turli-tuman ko'rinishlardagi olam. Tor ma'noda tabiat fan, asosan, tabiiy fanlar, tabiatshunoslik o'rganadigan obyektidir. Tabiat darajalari 2 xil: birlamchi tabiat, ikkilamchi tabiatdir. Bularning birinchisi, insoniyatdan xoli, mustasno tarzda, sof tabiiy holda mavjud bo'lgan tabiatdir; ikkinchisi, insoniyat ishtirokida hosil etilgan tabiiy ne'matlar – tuproq, suv havzalari va kanallar, daraxtzorlar, ekinzoru mevazorlar, aholi maskanlari – shahar, qishloq va boshqa tabiat tushunchasi insoniyat jamiyatining hayot faoliyati yuz beradigan tabiiy sharoitlar majmui sifatida ham ishlatiladi, o'rganiladi. Chunki bu ma'nodagi tabiat tushunchasi shunchaki (oddiy) fan obyekti (predmeti) sifatida emas, inson va jamiyatning tarixan ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni va bajaradigan funksiyasi bilan tavsiflanadi. Demak, tabiat tushunchasi birinchi tabiiy sharoitlarni emas, balki ijtimoiy-foydali mehnat jarayonida bunyod etiladigan moddiy ne'matlarni ham ifodalaydi. Bu jihatdan u shartli ravishda ikkilamchi yoki aksariyat hollarda ikkinchi tabiat deb ataladi. Binobarin, insonning hayot faoliyati tabiatga nisbatan o'rnatiladigan faoliyatining real poydevori (negizi)ni tashkil qiladi. Shu boisdan jamiyat taraqqiyoti jarayonida tabiatga bo'lgan munosabatning o'zgarib borishi insoniyat hayot faoliyatining xususiyati, miqyosi (ko'lami) va yo'nalishlarini belgilaydi. Bular oqilona yo'ldan borsa, tabiat bilan insoniyat orasi buzilmaydi va aksincha.

Insoniyat faoliyati turlarining takomillashuvi tabiatga bo'lgan falsafiy, ya'ni nazariy, ma'naviy, madaniy munosabatni belgilaydi. Insoniyatning tabiatga nisbatan munosabati doim o'zgarib, rivojlanib, goh yaxshilanib, goh yomonlashib kelmoqda. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar tabiatni tanti deb hisoblashgan. Bu hol animizm deb nom olgan dinda o'z ifodasini topgan. U davrda inson bilan tabiat bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmagan, ibtidoiy dinlarda tabiat ruhiy ibtidoning oddiy gavdalanishi, undagi hamma narsa o'tkinchi deb isbotlangan. Yevropada XV–XVI asrlardagi Uyg'onish (Renessans) davrida

tabiat tabiiylik, uyg'unlik va mukammallikning namoyon bo'lishi sifatida talqin etilgan. Bu mavqe keyinchalik tabiiy huquq nazariyasida o'z ifodasini topgan. Aslini olganda, tabiatdagi uyg'unlik va mukammallik mutlaq emas, nisbiydir. Tabiatning o'z qonunlari bor. Bular o'zining ta'siri, umumiylik darajasi, xususiyatlari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, yashash uchun kurash qonuni hayvonlardan bir-birining kushandasi sifatida yuz beradi; tabiatdagi qonunlar uch kategoriyaga bo'linadi. Qonunlarning birinchi turi xususiy tor doiradagi qonunlardir; bularga doimiy atmosferada bosim bilan gaz hajmining o'zaro aloqadorligi, elementlarning erkin, muayyan turdagi tirik organizmlar populyatsiyasining miqdori va boshqalar kiradi. Populyatsiyaning ikkinchi turi umumiy qonunlardir. Bularga mexanikaning hammaga ma'lum 3 qonuni: elektromagnitizm, tabiiy tanlanish qonunlari kiradi. Bu qonunlarning uchinchi turi eng umumiy qonunlar bo'lib, bular qatoriga energiya saqlanish qonuni, butun olamning tortilish qonuni, informatsiyani o'rtacha va o'zgartirish qonuni va boshqalar kiradi. Tabiatdan samarali foydalanish uchun yuqoridagi qonunlarni yaxshi bilish va ularga amal qilish taqozo etiladi.



“Yashil makon” umummilliy loyihasi.

Kelayotgan 2025-yilda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi muqarrar.

Atrof-muhitni asrash, iqlim o'zgarishlari oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biri “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etilishi bo'ldi.

Mazkur loyiha doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilangan. Bunday keng ko'lamli tashabbusning amalga oshirilishi natijasida viloyatdagi yashil maydonlar hududi 8 foizdan 15 foizga yetkazildi. Bu ko'rsatkichni "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida 30 foizga yetkazish reja qilib olingan.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar natijasida 59,4 mln. tup daraxt va buta ko'chatlari ekilib, yashilmakon.eco platformasiga kiritildi.

Inson yer yuzasidan uzoqda hayot kechira olmaydi. Chunki uning makoni – uyi, yeridir. Yerni o'rab turuvchi atmosfera qatlamlari bor, u o'z pardasi azon qatlamiga ega. Men bu pardani bolaning ona qornida o'ralib turgan pardasi bilan qiyoslayman. Bu parda nosog'lom ekan, ya'ni teshik va yirtilgan joylari ko'p ekan, oqibat yerga jamiki mavjudotga, qisqasi, hayotga tuzatib bo'lmas shikast yetadi. Yerni o'rab turgan atmosfera qatlamlari, uning qobig'i, qa'riga joylashgan turli elementlar, moddalar zaminimiz hayoti uchun zarurdir. O'xshash elementlar yuz minglab yillar mobaynida bir-biriga tortishib, yaqinlashib, intilib, ma'lum joylarda to'planib qolishgan. Bular biz bilgan neft, gaz, oltin, turli toshlar, ma'dan ham rudalar, o'simliklar, jonzotlar, suv va havodir. Insondan boshqa bironta maxluqot yo'qki har qanday sharoitga moslashish imkoniyati yuksak bo'lsa.

Tabiatning o'zi zargarga o'xshaydi. Uning bag'ridan unib chiqqan har bir giyoh, har bir daraxt, o'rmonlar, hayvonot olami o'ziga xos bir olamdur. Bu tabiiy boylikka daxl qilinishining oldini olish, muhofaza qilish faqat shu soha xodimlarining ishi emas, balki barchaning burchidir. Chunki, biz yashayotgan hudud musaffoligi, ekologik muvozanat barchamizga birday daxldordir. Muxtasar qilib aytganda, ona tabiatga mehr-muhabbatli bo'laylik. Oilalarda, mahalla va qishloqlarda ekologik tarbiyani kuchaytiraylik. Orastalikka rioya qilishimiz, gulu giyohlar maskani va daraxtzorlarni avaylab parvarishlashimiz zarur. Agar biz tabiiy go'zalliklarga ziyon yetkazmaslikni odat qilsak, avlodlar kelajagi va xayotning davomiyligi uchun shunchalik ko'p qayg'urgan bo'lamiz.

TABIAT — ONAMIZ

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 1,5 million hayvon va 500 mingga yaqin o'simlik turlari mavjud ekan. O'zbekistonda ular 4230 dan ortiq. Shulardan 770 tasida dorivorlik xususiyati bor. Ko'rinib turibdiki, tabiatning o'zi ulkan «dorixona»dir.

Yer yuzidagi ana shu o'simliklar yiliga 400 milliard tonna kislorod ishlab chiqaradi. Bu esa insoniyat va jamiki jonzotlarning yashashiga imkoniyat yaratadi.

Tabiat insonni yediradi, ichiradi, kiyintiradi. Shu bois unga «ona» soʻzini qoʻshib aytamiz.

Insonlarga maʼnaviyat va maʼrifat urugʻini tarqatuvchi Islom dinimizda ham hayvonot olami va bizning sogʻ-salomat turmush kechirishimizga xizmat qilayotgan muhitni, havo, yer va suvni iflos qilmaslik haqida pandu nasihat va oʻgʻitlar bisyor. Ulugʻlarmiz ham «Atrof-muhitga mehrli, shafqatli munosabatda boʻlinglar, suvga, oʻzanlarga, serqatnov yoʻllarga, soya-salqin joylarga chiqindi tashlab, laʼnatga qolishdan qoʻrqinglar», — deya ogohlantirgan.

Qadimda ota-bobolarimiz farzand koʻrishlari munosabati bilan daraxt nihollari ekishgan. Momolarimiz oilada qiz bola tugʻilsa, unib-oʻssin, bir etak farzandlarni yetaklab yursin deya yaxshi niyat bilan mevali daraxtlar ekishgan. Agar oʻgʻil bola tugʻilsa, voyaga yetgach unga uy-joy qurish uchun kerak boʻladigan tol va teraklar ekishgan. Bu yaxshi udum albatta, yashillik olamini koʻpaytirishga xizmat qilgan.

Bir yoʻlovchi keta turib, nuroniy cholning mevali daraxtlar ekayotganini koʻrib, debdi:

— Siz ekayotgan bu nihollar qachon voyaga yetadi-yu, qachon meva beradi, sizga nasib qiladimi, yoʻqmi?

— Menga savobi tegsa, boʻldi. Kelajakda ularning mevasini farzandlarimiz yeydi, — degan ekan u.

Ming afsuski, bugungi kunda baʼzi yoshlarda yetarli ekologik madaniyatning shakllanmagani, ularga ota-onalari tomonidan tabiat muhofazasi yoki ekologik madaniyat toʻgʻrisida yetarli tushuncha berilmagani sababli ona tabiatga, yashillik olamiga nisbatan hurmatsizlik, toptash, ezgʻilash, sindirish yoki ataylab zarar yetkazish holatlari uchraydi.

Yoz kunlarining birida oilaviy tarzda, tabiat qoʻynida dam olgani bordik. Togʻ etagidagi soya-salqin joyda mashinani yoʻl chetiga toʻxtatdik. Narsalarni daraxt ostiga olib borishdan avval ikki nafarimiz 50-100 metrlik chamasini nariroqdagi joyni koʻrishga ketdik.

Ming afsuski, bizga sirtidan maʼqul koʻringan salqin, yashillikka burkangan joy bizdan avval kelib-ketganlarning kasridan achinarli holatda yotardi. Maysalar payhon qilingan, ichimlik shishalariyu ovqat va sigaret qoldiqlari, non boʻlaklari sochilib yotardi.

Bir savol tugʻiladi. Nahotki, dam olishga kelganlar bu yerga oʻzidan keyin ham odamlarning hordiq chiqarishi, tabiat goʻzalliklaridan bahramand boʻlishga haqqi borligini oʻylab koʻrmasa? Ular bizni yedirib, kiyintiradigan, toʻydiradigan ona

tabiatga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lgani uchun gunohga botishi va uning uvoli tutishini xayollariga keltirishmasa?

Agar ularda ekologik madaniyat ko'nikmasi shakllantirilganda, bunday achinarli holatga duch kelmagan bo'lardik.

Ulug' olim Abu Rayhon Beruniy aynan ana shundaylarga «Agar odamlar tabiatga nisbatan loqayd munosabatda bo'lsalar, uning qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzsalor, bir kun kelib tabiat ulardan o'ch oladi, o'shanda hech qanday kuch uni to'xtata olmaydi», — deya ta'kidlagan edi.

Hozirgi paytda ba'zi mamlakatlarda yuz berayotgan turli tabiiy ofatlar, sel va kuchli to'fonlar, yong'inlar, kuchli yer silkinishiyo chang bo'ronlari balki insoniyatning ona tabiatga nisbatan ana shunday shafqatsizligi yoki undan nooqilona foydalanishi oqibati.

Ha, ona tabiatni asrash va sevrishda biz kattalar yoshlarning e'tiborsizlik va loqaydliklariga aslo yo'l qo'ymasligimiz lozim. Shunday ekan, maktab, uy, ko'cha, mahallada bo'ladimi, ularning xatti-harakatini nazorat qilgan holda o'git va maslahatimizni ayamasak, albatta, buning samarasi bo'ladi.

Muhimi, barchamiz shu ona zaminda, gullab-yashnayotgan mamlakatda hayot kechirayotgan ekanmiz, ona tabiatni, yeru osmonni, atrof-muhitni asrab-avaylashga, uni asl holatida kelajak avlodga yetkazishga mas'ul ekanligimizni unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan manbalar:

Internet ma'lumotlardan foydalanildi.

Mundarija:

1. Muqaddima
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil nomi e`lon qilindi.
3. Odamning tabiatga munosabati.
4. “Yashil makon” umummilliy loyihasi.
5. Tabiat onamiz